

INFORMATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA YUQORI MALAKALI, ZAMONAVIY XOTIN-QIZLARNI TAYYORLASHNING DOLZARB MUAMMOLARI

Sobirova Nigina Aliyevna

Maxmudova Shaxlo Mizrobovna

“Chet tillar” kafedrası katta o'qituvchilari, Toshkent amaliy fanlar universiteti

sobirovan682@gmail.com, shaxlosha2022@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11273269>

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda xotin-qizlarga berilyotgan keng imkoniyatlar, shart-sharoitlar hamda informatsion texnologiyalar asosida yuqori malakali, zamonaviy xotin-qizlarni tayyorlashning dolzarb muammolari haqida fikr yuritiladi. Jamiyatda xotin-qizlarning o'rni beqiyosdir. Har bir sohada talab qilinayotgan zamonaviy axborot texnologiyalarni bilish xotin-qizlarning ish faoliyatlarida o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Nafaqat ilm-fan balki iqtisodiy-siyosiy jabhalarni rivojlantirishda informatsion texnologiyalar asosida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash bugungi kunning muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Aynan shu sohada qilingan ishlar to'g'risida maqolamizda atroflicha yoritilgan.

Kalit so'zlar: Informatsion texnologiyalar, xotin-qizlar faoliyati, zamonaviy axborot texnologiyalar, ilmiy tadqiqot.

Аннотация: В данной статье рассматриваются актуальные проблемы подготовки высококвалифицированных, современных женщин на основе широких возможностей, условий и информационных технологий, доступных в настоящее время женщинам. Место женщины в обществе ни с чем не сравнимо. Знание современных информационных технологий, необходимое во всех сферах, оказывает влияние на трудовую деятельность женщин. Подготовка высококвалифицированных кадров на основе информационных технологий в развитии не только науки, но и экономического и политического аспектов является одним из важных вопросов современности. Подробно проделанная работа в этой области описана в нашей статье.

Ключевые слова: Информационные технологии, женская деятельность, современные информационные технологии, научные исследования.

Abstract: This article discusses the current problems of training highly qualified, modern women on the basis of the broad opportunities, conditions and information technologies currently available to women. The place of women in society is incomparable. Knowledge of modern information technologies, which is required in every field, has an impact on women's work activities. Training of highly qualified personnel on the basis of information technologies in the development of not only science, but also economic and political aspects is one of the important issues of today. The work done in this field is described in detail in our article.

Key words: Information technologies, women's activities, modern information technologies, scientific research.

Ingliz yozuvchisi Jorj Mereditning xotin-qizlarga oid bir hikmatli so'zida shunday fikr aks ettirilgan “Ayolning donoligi, bu – bebaho xazina. Boz ustiga, bu xazina oqilalik va go'zallik bilan siylangan bo'lsa, bu – katta qudratdir.” Zero ayolar har qanday jamiyatning eng asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Chunki yosh avlod ta'lim-tarbiyasi nisbatan ko'proq shu xilqatning salohiyati va bilimiga bog'liq. So'nggi yillarda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeini oshirish, ularni ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash,

iqtidorli ayollarni qo'llab-quvvatlash maqsadida juda ko'p islohotlar amalga oshirildi. O'zgarishlar va taraqqiyot asrida xotin-qizlarga bo'lgan e'tibor o'z samarasini bermoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Informatsion texnologiyalar asosida yuqori malakali xotin-qizlarni tayyorlashda, hozirda juda ko'p salmoqli ishlar qilinmoqda. Vazirlar Mahkamasi tomonidan «Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaror qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq, informatsion texnologiyalar asosida yuqori malakali, zamonaviy xotin-qizlarni tayyorlashning dolzarb muammolar masalasini hal qilish maqsadida raqamli iqtisodiyotni jadal rivojlantirishga hissa qo'shadigan, zamonaviy talablarga javob beradigan va AKT sohasida ilg'or texnologiyalar bo'yicha bilim va ko'nikmalarni egallagan yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga oid dastur ishlab chiqildi. Unga ko'ra:

- 1) o'quv rejalariga zamonaviy fanlarni kiritib borish, innovatsion va ilm-fanga asoslangan texnologiyalarni tatbiq qilish hamda ilg'or xorijiy tajribani qo'llagan holda o'quv jarayonini ta'limning yangi tizimi asosida tashkil qilish;
- 2) ilmiy-tadqiqot institutlari bilan manfaatdor vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlar hamkorligida fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarni olib borish hamda ularning natijalarini ishlab chiqarishga keng joriy etish;
- 3) oliy o'quv dargohlarida birlashtirilgan informatika va AKTni chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan tayanch maktablar faoliyatini metodik qo'llab-quvvatlash.

Bundan tashqari, bu sohada faoliyat yurituvchi, oliy ta'lim tizimi bilan integratsiyalashgan o'rta maxsus professional ta'lim bosqichida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishlari bo'yicha kadrlar tayyorlaydigan texnikumlar tashkil etish va imkon qadar xotin-qizlarning ta'lim olishini qo'llab quvvatlashdan iborat. Aytish joiz-ki, xotin-qizlarning zamonaviy axborot texnologiyalarni bilishi va bu haqida har bir sohada faoliyat yuritayotgan ayollarning tushunchaga ega bo'lishi tabiiyki, quvonarli holat. Sababi texnikalar davrida yashar ekanmiz, axborot texnologiyalarni tushunish talab qilinadi va zamon bilan hamnafas bo'lmoqlik insonning jamiyatdagi o'rnini belgilab beruvchi omil deyishimiz mumkin.

NATIJALAR

Yangi O'zbekistonda ko'plab ziyoli va olim ayollar yetishib chiqib, xalq xo'jaligining deyarli barcha sohalarida faoliyat yurita boshladilar. Biroq aytish lozim-ki, o'tgan asrda xotin-qizlarning mutlaq ko'pchiligi qishloq xo'jaligida – paxta terish, pilla yetishtirish, traktor haydash bilan band edi. Ammo hozirda Davlat rahbarining tashabbusi bilan xotin-qizlar ta'limiga alohida e'tibor qaratilganini alohida e'tirof etish lozim. Olima ayollarni qo'llab-quvvatlash, mamlakatda xotin-qizlar ta'limiga alohida e'tibor berilishini yanada kuchaytirish maqsadida, ilm-fan sohasida xotin-qizlarning o'rniga doir salbiy qarashlarga qarshi faol kurashib, ayollar va qizlarning ilm-fan bilan to'laonli foydalanishlari uchun teng imkoniyatlar yaratilishi, shuningdek xotin-qizlarning huquqlarini kengaytirish maqsadida qator tadbirlarni birgalikda amalga oshirish o'rinlidir. Zero, yurtboshimiz tomonidan ilgari surilgan xalq farovonligi hamda mamlakat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etuvchi qator tashabbuslar, belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta'minlash doirasida xotin-qizlarning ta'lim olishlariga katta e'tibor qaratayotgani, ilm-fan sohasida izlanishlar olib borayotgan opa-singillarimizni har tomonlama qo'llab-quvvatlash yuzasidan amaliy chora-tadbirlarni amalga

oshirib kelinayotgani barchamizni quvontirishi tabiiy hol. Xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish, intellektual, ishbilarmonlik salohiyatini rivojlantirishga ko'maklashish hamda tashabbuslarini rag'batlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlar opa-singillarimizning oila va jamiyatdagi mavqei yuksalib borishiga zamin yaratmoqda.

MUHOKAMA

Binobarin, ayolni e'zozlash, unga oila tayanchi, millat tarbiyachisi sifatida ehtirom ko'rsatish, bunga uzviy ravishda onalik hamda bolalikni muhofaza qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bundan tashqari hozirgi kunda ilmiy tadqiqot bilan shug'ullanyotgan va ta'lim tizimiga yangicha yondashuvlar bilan kirib kelyotgan yosh olimlar xotin-qizlarga berilyotgan imkoniyatlar cheksiz. Har qanday sohada o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, yosh olimlarimizning ko'payishi bu jamiyatda xotin-qizlar o'rnining oshishiga va ularga nisbatan qarashlarning ijobiy tomonga yo'naltirilishining guvohi bo'lishimiz mumkin. Ta'limda olib borilyotgan islohotlarning markaziy muammosi xotin-qizlarning shaxsini rivojlantirish orqali ta'lim maqsadiga erishishni ta'minlashdan iboratdir. Bundan tashqari, xotin-qizlarimizni bilim olishi va ilmiy kadr bo'lib yetishishlari uchun mamlakatimizning har bir sohasida qator yangiliklar qilinmoqda.

XULOSA

Xullas, xotin-qizlar uchun mamlakatimizdagi oliy ta'lim muassalarida olib borilayotgan ta'lim-tarbiya jarayoni bilan bog'liq o'zgarishlar ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, uni milliy ruh bilan sug'orish, samarali an'anaviy uslublarni saqlab qolgan holda, innovatsion tizim yaratish va amaliyotda qo'llash borasida bir qator ishlar olib borilmoqda. Bu faoliyatlarning barchasi avvalo xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rnini yuksaltirishdan iborat, qolaversa, xalqimiz taraqqiyoti uchun malakali, zamonaviy kadrlarni tayyorlashdan qaratilgan xatti-harakatlar hisoblanadi. Fikrimiz so'ngida aytish lozim-ki, Yangi O'zbekistonning nafaqat xotin-qizlarining, balki barcha yoshlarining imkoniyatlari cheksiz. Ilm-fan yo'lida bu imkoniyatlardan samarali foydalanilsa ayni muddao bo'lardi. Demak, hozirgi qarashlar, oldingi qarashlardan tubdan farq qilar ekan, har qanday sohada faoliyat olib boryotgan xotin-qizlarimiz o'z ishining ustasi, yetakchi mutaxassis kadr bo'lishi uchun davlatimiz hamda yurtboshimizning qo'llab quvvatlashlari, biz yoshlarning mas'uliyatini oshiradi, Bunga javoban biz o'zimizning salohiyatimiz hamda bilim ko'nikmalarimiz orqali yurtimiz ravnaqiga hissa qo'shmog'imiz lozim.

Адабиётлар руйхати

1. O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi ta'lim to'g'risidagi qonun 2020y.
2. Sh.M. Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.– Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2017.
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Bosh tahrir hay'ati a'zolari: M.Aminov va b. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2002.
4. www/kun/uz